

## “Tungi cheksizni sinab ko‘ring” aksiyasi qoidalari

“Tungi cheksizni sinab ko‘ring” aksiyasi (keyingi o’rinlarda – Aksiya) “Humans” MChJ (100047, O’zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko’chasi, 2 B uy, STIR 306624856) tomonidan o’tkazilmoqda va noaniq shaxslar guruhiga qaratilgan.

### 1. AKSIYA HAQIDA MA’LUMOT

1.1. Ushbu Qoidalarda katta harflar bilan yozilgan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarning ma'nosi, agar ushbu Qoidalarda boshqacha belgilanmagan bo'lsa, Provayder tomonidan tasdiqlangan va [www.humans.uz](http://www.humans.uz) Saytida joylashtirilgan Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlarida, shuningdek, Tariflar va Humans sodiqlik dasturi tavsiflarida keltirilgan.

1.2. Aksiya ishtirokchilari – ushbu Qoidalarning 2-bo‘limida sanab o‘tilgan amallarni bajargan mijozlar.

1.3. Aksiya o’tkaziladigan hudud: O‘zbekiston Respublikasi.

1.4. Aksiya o’tkazilish muddati: 2025-yil 6-fevraldan 2025-yil 31-martga qadar.

### 2. AKSIYA TAVSIFI

2.1. “Humans” MCHJ qandaydir pulli uzaytiriladigan opsiyalar ro‘yxatini shakllantirish paytida ulanmagan, nol daqiqa va nol gigabaytli tarif bo‘yicha Aksiya Ishtirokchilari ro‘yxatini belgilaydi.

2.2. Mazkur Mijozlarga 3000 (uch ming) so‘m miqdorida bir martalik Keshbek hisoblanadi.

2.3. Aloqa xizmatlariga Keshbekdan foydalanish imkoniyati ulanmagan aksiya Ishtirokchilariga ushbu imkoniyat ulanadi. Aksiyada ishtirok etish Aloqa xizmatlarini to‘lash uchun Keshbekdan foydalanishni ularsga Ishtirokchining roziligini anglatadi.

2.4 Aksiya ishtirokchilariga ilgari hisoblangan 3000 (Uch ming) so‘m Keshbek hisobidan to‘lanadigan “Tungi cheksiz gigabaytlar” opsiyasi ulanadi. Opsiyaning amal qilishi, uni uzaytirish va keyinchalik to‘lash Tariflar tavsifida tartibga solinadi.

2.5. Aksiyada bitta ishtirokchi 1 (bir) marta ishtirok etishi mumkin.

### **3. YAKUNIY QOIDALAR**

3.1. Ushbu Qoidalar Provayder saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Provayder bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni o'zgartirishga yoki bu haqida Saytda tegishli xabarni joylashtirish orqali Aksiyani bekor qilishga haqli. Xabar berish sanasi tegishli ma'lumotlarning Saytda e'lon qilingan sanasi hisoblanadi. Saytda tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan paytdan boshlab qoidalar o'zgartirilgan deb hisoblanadi va Aksiya bekor qilinadi.